

Savobga yo'g'rilgan xayriya tadbir

"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti hamda "Mehrli qo'llar" tashkiloti bilan birgalikda xayriya tadbirini tashkillashtirdi. Dastlab "Tansiqboy" mahallasida istiqomat qiluvchi boquvchisini yo'qotgan oila holidan xabar olindi. So'ngra poytaxtmizning Archa ko'cha mahallasiga tashrif buyurilib sil kasalligidan xastalangan bemorga kimyoviy terapiya tekshiruvidan o'tish uchun bir million so'm berildi va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazildi.



Keles tumanida nogiron farzandi bor oilaga bir oylik oziq-ovqat mahsulotlari yetkazildi. Xayriya doirasida jami 2 mln. 777 ming so'm to'plandi. Xayriya tadbiriga o'z hissasini qo'shgan QXM fakultetining talabalariga samimiy minnatdorchilik bildiramiz.



TIQXMMI matbuot xizmati